

**IS'HOQXON IBRAT NOMIDAGI NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/05.05.2023.Fil.163.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

IMAMOV NAVRUZ PATTAQULOVICH

**INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA ASPEKTUAL SEMANTIKANI
SHAKLLANTIRUVCHI ADVERBIALLAR TIPOLOGIYASI**

10.00.06-Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik, tarjimashunoslik

**filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan-2025

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**The contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD) on
degree in Philology**

Imamov Navruz Pattaqulovich

Ingliz va o'zbek tillarida aspektual semantikani shakllantiruvchi adverbiallar
tipologiyasi 3

Imamov Navruz Pattaqulovich

Типология наречий, образующих аспектуальную семантику в английском и
узбекском языках 24

Imamov Navruz Pattaqulovich

Typology of adverbials forming aspectual semantics in english and uzbek 46

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 50

**IS'HOQXON IBRAT NOMIDAGI NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/05.05.2023.Fil.163.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

IMAMOV NAVRUZ PATTAQULOVICH

**INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA ASPEKTUAL SEMANTIKANI
SHAKLLANTIRUVCHI ADVERBIALLAR TIPOLOGIYASI**

10.00.06-Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik, tarjimashunoslik

**filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan-2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.4.PhD/Fil1803 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.namsifl.uz) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) manzillarida joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Mirsanov G‘aybullo Qulmurodovich
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Ziyayev Avaz Ixtiyorovich
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Xamrayeva Maxzuna G‘ayratovna
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat chet tillari instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/05.05.2023.Fil. 163.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil «_____» _____ kuni soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: Namangan viloyati, To‘raqo‘rg‘on shahri, Saodat ko‘chasi, 28-uy. Tel.: +998 (69) 442-11-67, e-mail: info@namsifl.uz).

Dissertatsiya bilan Namangan davlat chet tillari instituti Axborot resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: Namangan viloyati, To‘raqo‘rg‘on shahri, Saodat ko‘chasi, 28-uy. Tel.: +998 (69) 442-11-67, e-mail: info@namsifl.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «_____» _____kuni tarqatildi.
(2025-yil «_____» _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

N.T.Dosbayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

I.I.Umrzaqov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

S.A.Misirov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida leksik va grammatik hodisalar bog‘liqligida yuzaga keladigan semantik xususiyatlarning boshqa sathlar bilan aloqasini o‘rganishga qiziqish tobora ortib bormoqda. Keyingi yillarda tilshunoslar fan taraqqiyotining oldingi bosqichlarida kamroq e‘tibor qaratilgan predikat semantikasiga boshqa kontekstual elementlar ta‘sirini qiyosiy o‘rganish masalasiga ko‘proq e‘tibor qaratishmoqda. Zero, predikat semantikasini o‘zgartiradigan ayrim adverbiallar yetarlicha o‘rganilmagan grammatik so‘z turkumlaridan biriki, bu lisoniy muammo mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlar zaruriyatini belgilab beradi.

Dunyo tilshunosligida adverbiallarning ma‘noviy va funksional xilma-xilligi tufayli predikat semantikasi, grammatik shakl va pragmatik mazmun xususiyatlarini hisobga olgan holda qiyosiy-tipologik tahlil qilish zaruriyati paydo bo‘ldi. Adverbiallar tadqiqida kompozitsion funksional-semantik maydon kabi yondashuvlari keng qo‘llanilmoqda. Shunga qaramay, aspektual va temporallikni mazmunan boyitadigan adverbiallar gapning semantik tuzilishidagi tugallanganlik, boshlanganlik, davomiylik, takroriylik kabi ma‘nolarga ta‘siri va o‘rni, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini qiyosiy jihatda o‘rganish e‘tibordan chetda qolmoqda. Zamonaviy tilshunoslikda adverbiallarning bunday integratsiyalashishini o‘rganish zarurati tadqiqot ishining dolzarbligini belgilaydi.

O‘zbek tilshunosligida fe‘l semantikasi va unga ta‘sir etadigan kontekstual vositalar tahliliga keng e‘tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga ingliz va o‘zbek tillari predikat semantikasini chog‘ishtirish orqali kontekstdagi lisoniy vositalar mazmunini belgilash ham dolzarblik ahamiyatga egadir. Jumladan, ingliz va o‘zbek tillarida aspektuallik kategoriyasini hosil qiluvchi leksik-semantik vositalarning chog‘ishtirma tahlili qiyoslanayotgan tillar tizimida adverbiallarning turli kontekstda qo‘llanilish darajasini o‘rganishda hamda ularning aspektual semantikaga ta‘sirini umumiy va xususiy jihatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xususan, aspektuallik kategoriyasini tashkil etuvchi adverbial birliklarning maydoniy tabiati, konseptual xususiyatlari mohiyati bilan bog‘liq jihatlarini tadqiq etish ingliz va o‘zbek tillari miqyosida qiyosiy o‘rganilmagan.

Respublikamizda ilm-fan rivoji uchun ilmiy tadqiqotlarga keng e‘tibor qaratilmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi prezidentining “O‘zbekiston ilm-fan, intellektual salohiyat sohasida, zamonaviy kadrlar, yuksak texnologiyalar borasida dunyo miqyosida raqobatbardosh bo‘lishi shart”ligi tilshunoslik sohasidagi izlanishlarning nazariy va amaliy jihatdan yanada yuqori bosqichga ko‘tarilishi lozimligini ko‘rsatadi. Zero, “fan va ma‘rifat nafaqat yoshlarning, balki butun jamiyatimizning ham intellektual va ma‘naviy salohiyatini oshirishda birinchi darajali ahamiyatga ega”¹. 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2022- yil 18-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

¹ <https://lex.uz/ru/docs/5841077>. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son

to'g'risida"gi farmonlari. 2020-yil 16-apreldagi PQ-4680-son "Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5- iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2021-yil 25- yanvardagi PQ-4963-son "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora tadbirlari to'g'risida"gi shuningdek, mazkur sohada qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ham ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Aspektuallik kategoriyasini tashkil qiladigan grammatik, sintaktik, leksik-semantik vositalarning faollashuvi turli tillar tizimidagi qiyosiy tadqiqi taniqli tilshunoslar e'tiborini doimo jalb qilib kelgan. Jumladan, aspektuallikning grammatik kategorial xususiyatlari borasida Z. Vendler, B. Comrie, B. Kortman, W.A. Croft, M. Krifka, H.J. Verkuyl, D.R. Dowty, R.C Jackendoff, O. Dahl, C.S. Smith, R. Declerck, W. A. Croft, Yu.S. Maslov, E.V. Paducheva, A.V. Bondarko, V.S. Xrakovskiy, F.A. Ganiyev, V.A. Plungyan, T.V. Bulgina, A.D. Shmelev, A.A. Yuldashev, V.G. Guzev, D.M. Nasilov, B.X. Rizayev, A. R. Shamsutdinovalar² tomonidan amalga oshirilgan

² Vendler Z. "Verbs and Times." *Philosophical Review* 56, 1967. – P. 143-160; Comrie B. *Aspect. An introduction to the study of verbal aspect and related problems.* Cambridge 1976. – 142 p; Kortman B. *The Triad "Tense - Aspect - Aktionsart" // Problems and possible solutions. Perspectives on aspect and Aktionsart.* – Bruxelles, 1991. – P. 9-27; Croft W. *Radical Construction Grammar: Syntactic Theory in Typo-logical Perspective.* Oxford University Press, 2001. – 416 p; Krifka M. *The origins of telicity // Events and grammar; "The Origins of Telicity." Events and Grammar.* - Dordrecht/Boston/London: Kluwer Academic Publishers, 1998. – P. 197-235; Verkuyl H. *A theory of aspectuality: the interaction between temporal and atemporal structure.* Cambridge University Press, 1993. – 258 p; Dowty D. R. *Thematic Proto-Roles and Argument Selection // Language*, № 67, 1991. – P. 547-619; Jackendoff R. *Semantics and cognition. The handbook of contemporary semantic theory: 1996.* – 559 p; Dahl O. *Tense and aspect systems.* Great Britain: The Bath Press, 1985. – 214 p; Smith C. S. *The Local Structure of Texts.* Cambridge University Press, 2003. – 336 p; Declerck R. *The Grammar of the English Tense System // A Comprehensive Analysis. Volume 1: –Berlin: Mouton de Gruyter, 2006 – 848 p; Маслов Ю.С Теория функциональной грамматики. Введение. Аспектуальность. Временная локализованность. Таксис. - Л. 1987. – С. 195-209; Падучева Е. Семантические исследования: Семантика времени и вида в русском языке. Семантика нарратива. М.: Языки славянской культуры, 1996. – 464 с; Бондарко А.В. Принципы функциональной грамматики и вопросы аспектологии - Л.: Наука, 1983. – 207 с; Храковский В.С. Кратность Теория функциональной грамматики. Введение. Аспектуальность. Временная локализованность. Таксис. - Л.: Наука, 1987. – С. 124-152; Ганиев Ф.А Татарский язык: проблемы и исследования – Казань: Татарское книжное изд-во, 2000. – 432 с; Плунгян В.А. Общая морфология: Введение в проблематику: Учебное пособие 2-е изд., исправленное. - М.: Едиториал УРСС, 2003. – 384 с; Булыгина Т.В., Шмелев А.Д. Пространственно-временная локализация как суперкатегория предложения // Вопросы языкознания. №3.*

izlanishlarni alohida qayd etish lozim. Aspektual semantika nuqtayi nazaridan predikatlarning tasnifi J. Bybee, H. Filip, B. Levin, R. Declerck T. Bulgina, A. Yuldashev, A. Hojiev, T. Beloshapkova, G'. Mirsanov, A. Nurmuxammedov, A. Muminova³ kabi tilshunos olimlar tomonidan o'rganilganligini alohida ta'kidlash joiz.

Aspektual semantikni faollashuvida kontekstual elementlar tahliliga ham ko'plab tilshunos olimlar va tadqiqotchilar e'tibor qaratishgan. Bundan maqsad predikat semantikasiga ta'sir etadigan kontekstual til birliklari va tuzilmalarni ajratish hamda ularni aspektual va temporal xususiyatlarini farqlovchi belgilarini aniqlashga qaratilgan. Shu sabab, ingliz va o'zbek tillarida predikatlarni aspektual semantikasini tavsiflashda qiyoslanayotgan tillardagi adverbiallarning leksik va semantik xususiyatlarini belgilash, ularni chog'ishtirma tipologik o'rganish va tahlil qilish zarurati mavjud.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar instituti "Ingliz filologiyasi" kafedrasining "Tilning grammatik, leksik, semantik tavsifi masalalari" mavzusidagi reja asosida bajarildi.

Tadqiqot maqsadi ingliz va o'zbek tillarida adverbiallarning leksik-semantik tavsifini amalga oshirish hamda ularning aspektual va temporal semantikaga ta'sirini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

ingliz va o'zbek tillarida aspektuallik hodisasini lisoniy tamoyillarini ishlab chiqish, hamda uning leksik-grammatik faollashuvchi vositalarni aniqlash;

adverbiallarning semantik jihatdan murakkab predikativli jummalarni aspektual semantikasiga ta'sirini o'rganish, adverbiallarning semantik-sintaktik jarayonida ishtirok etishini ochib berish;

1989 – С. 51-61; Юлдашев А.А. Грамматика современного башкирского литера-турного языка. - М.: Наука, 1981. – 485 с; Гузев В.Г. Словоизменительные категории в тюркских языках и понятие «грамматическая категория» №3. 1981. – С. 22-35; Насилов Д.М. Проблемы тюркской аспектологии: Акциональность. - Л.: 1989. –208 с; Ризаев Б.Х. Проблема аспектной семантики временных форм немецкого глагола. Аспектная семантика претерита. Ташкент: “Фан”. 1999. – 121 с, А. Шамсутдинова Сопоставительный анализ адвербиальных средств с аспектуальным значением во французском и татарском языках: автореф дис. ... кандидата филологических наук: - Казань, 2007. – 24 с.

³ Bybee J., Perkins R., Pagliuca W. The evolution of grammar tense, aspect and modality in the languages of the world. The University of Chicago Press, 1994. – 420 p; Filip. H. Events and maximalization. The case of telicity and perfectivity. // Theoretical and Cross linguistic Approaches to the Semantics of Aspect. John Benjamins: Amsterdam, 2008. – P. 217-25; Levin B., Havov R. Argument realization (Research Survey in Linguistics). – Cambridge University Press, 2005. – 456 p; Declerck R. The Grammar of the English Tense System // A Comprehensive Analysis. Volume 1: - Berlin: Mouton de Gruyter, 2006. – 848 p; Булыгина Т.В, Д.А. Шмелев Языковая концептуализация мира (на материале русской грамматики . - Москва.: “Русской язык” 1997. – 231 с; Юлдашев А.А. Грамматика современного башкирского литера-турного языка. - М.: Наука, 1981. – 485 с; Hojiev A, Nurmonov A, Zaynobbiddinov S, Kokren K, Saidxonov M, Sobirov A, Quronov D "O'zbek tili grammatikasi" "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi 2001. – B. 335; Белошапкина Т.В. Когнитивно-дискурсивное описание категории аспектуальности в современном русском языке. Автореф. дисс. док. филол. наук. – Москва.: 2008. – 40 с; Мирсанов Ф. Қ., Дискурс таркибида аспектуал ва темпораллик мазмун ифодаси. // Монография. - Тошкент: “Наврўз”, 2018. – 156 б; Нурмухамедов А. Выражение начинательности глагольного действия в современном немецком и узбекском языках: Автореф. дисе. канд.филол.наук. - Ленинград.: 1976. – 23 с; Муминова А.О. Юриш-харакат феълларининг акционал семантикаси (Немис ва ўзбек тиллари материаллари асосида) Монография. - Самарканд: “Самарканд давлат чет тилар институти” нашриёти, 2022. – 120 б.

ingliz va o'zbek tillarida temporal adverbiallarning leksik-semantik xususiyatlari ta'sirida yuzaga keladigan aspektual semantika turlarini belgilash;

gap tarkibida qo'llanilgan adverbiallarning diskursiv mohiyatini ochib berish, aspekt semantikani hosil qilishdagi o'rnini yoritish, ularni predikat semantikasiga ta'sirini asoslash.

Tadqiqot obyektini ingliz va o'zbek tillarida aspektual va temporal semantikani shakllantiruvchi adverbiallar tanlangan.

Tadqiqot predmeti ingliz va o'zbek tillarida adverbiallar tarkibi, semantikasi, sintaktik vazifalari va aspektual hamda temporallik munosabatlari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda, qiyosiy, qiyosiy-tipologik, distributiv, kontekstual, tasniflash hamda tavsiflash usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ingliz tilida adverbiallarning gapning haqiqiy bo'linishi va gapning intonatsion tuzilishi bilan bog'liqligi printsipial ahamiyatga ega bo'lsa, o'zbek tilida adverbiallardan foydalanishda informativ xususiyat kasb etishi, ingliz tilida qo'shimcha leksemalarning sintaktik salohiyati ko'p jihatdan grammatik va boshqa qator omillarga bog'liq bo'lsa, o'zbek tilida zamon, mayl qo'shimchalari va ko'makchi fe'llar semantikasiga bog'liqligi aniqlangan;

ingliz va o'zbek tillarida adverbiallarning iterativlik, durativlik, tugallanganlik, natijaviylik, boshlanganlik kabi predikat aspektual semantikasini faollashtirishi dalillangan;

kompozitsion yondashuv va kontekstual shart-sharoitlarda miqdoriy adverbiallar matnni qo'shimcha semantika bilan to'ldirishi, adverbiallarning aspektual semantikani hosil qiluvchi funksiyalari temporal tarkibga bog'liqligi, predikatlarning dinamik/statik tavsif farqlashda habituallik, iterativlik, tugallanganlik, davimoylik kabi ma'nolarni qamrab olishi dalillangan;

ingliz va o'zbek tillarida adverbiallarning funksional-semantik maydoni temporallik, aspektuallik, taksis kabi kategoriyalarda faollashuvi ochib berilgan.

Tadqiqot ishining nazariy ahamiyati erishilgan natijalarining hozirgi zamonaviy grammatika, semantik-sintaksis nazariyasi (xususan, sodda so'zning semantik murakkablashuvi muammolarini o'rganish) rivojiga qo'shgan hissasi bilan bog'liq.

Tadqiqotning amaliy natijalari

ingliz va o'zbek tillarida aspektual semantikani yuzaga kelishida temporal birliklarni ifodalanishiga aloqador xususiyatlarni belgilash metodikasi ishlab chiqilgan;

adverbiallarning aspektuallik semantik maydonida temporallik, deyektik vazifalarni shakllantiruvchi omillar sifatida qayd etilgan;

qiyoslanayotgan tillarda adverbiallarning diskursdagi lisoniy munosabatlarni o'rnatuvchi aspektual va temporal hodisalar semantik va kontseptual tahlilini amalga oshirish istiqbolini shartlovchi yo'nalishlar belgilangan;

tadqiqot xulosalaridan foydalangan holda ingliz va o'zbek tillarida adverbiallarning kategorial xususiyatlarini tasniflashga oid tavsiyalar taklif etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi nazariy ma'lumotlarning rasmiy ishonchli manbalardan olinganligi, ingliz va o'zbek tillaridagi izohli lug'atlar, ilmiy hamda badiiy adabiyotlardan foydalanilgani, chiqarilgan xulosalarning zamonaviy tahlil usullari yordamida asoslangani bilan izohlanadi. Shuningdek, olingan natijalarning qat'iyligi, qo'llanilgan yondashuv va metodlar hamda ularning nazariy asoslari badiiy adabiyotlardan olingan misollar tahlili bilan muvofiqligi isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati adverbiallarning sintaktik tuzilmani hosil qilishi va uning semantik voqelanishini nazariy hamda qiyosiy tilshunoslik yo'nalishlari doirasida adverbiallarning leksik-semantik, grammatik mazmunini belgilash, ularning funksional-semantik maydonda faollashuvini aniqlashga xizmat qiladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati uning natijalaridan ingliz va o'zbek tillari nazariy grammatikasi, qiyosiy tilshunoslik, semantika sohalari bo'yicha maxsus seminarlar tashkil etish, til ta'limi amaliyotida, o'quv adabiyotlarining yangi avlodini tayyorlashda magistratura bosqichi talabalari uchun maxsus kurslar yaratishda (tanlov fanlar) keng foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

ingliz tilida adverbiallarning gapning haqiqiy bo'linishi va gapning intonatsion tuzilishi bilan bog'liqligi printsiplial ahamiyatga ega bo'lsa, o'zbek tilida adverbiallardan foydalanishda informativ xususiyat kasb etishi, ingliz tilida qo'shimcha leksemalarning sintaktik salohiyati ko'p jihatdan grammatik va boshqa qator omillarga bog'liq bo'lsa, o'zbek tilida zamon, mayl qo'shimchalari va ko'makchi fe'llar semantikasiga bog'liqligiga oid ma'lumotlardan Samarqand davlat chet tillar institutida Yevropa Ittifoqi tomonidan Erasmus + dasturining 2016-2018-yillarga mo'ljallangan 561624-EPP-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS + CBHE IMEP: "O'zbekistonda oliy ta'lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish" nomli innovatsion tadqiqotlar loyihasi doirasida foydalanilgan. (Samarqand davlat chet tillar institutining 2024-yil 11-maydagi 968/02 son ma'lumotnomasi). Natijada dissertatsiya materiallari lingvokulturologiya, tipologiya, qiyosiy tilshunoslik kabi fanlarni o'qitishda, shuningdek, ushbu amaliy loyiha bo'yicha elektron manbalar, bosma darsliklar, nazariy va amaliy materiallarni tayyorlashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

ingliz va o'zbek tillarida adverbiallarning iterativlik, durativlik, tugallanganlik, natijaviylik, boshlanganlik kabi predikat aspektual semantikasini faollashtirishi borasidagi ma'lumotlar Samarqand davlat chet tillar institutida Yevropa ittifoqining Erasmus+ dasturi 58545-EPP-1-2017-1-ES-EPPKA2-CBHE-JP CLASS: "Computational linguistics at Central Asian universities" grant loyihasi doirasida tilshunoslikdagi kompyuter lingvistikasiga oid atamalarning ijtimoiy-siyosiy leksik xususiyatlarini aniqlashda ilmiy natijalaridan foydalanilgan. (Samarqand davlat chet tillar institutining 2024-yil 11-maydagi 967/02 son ma'lumotnomasi). Natijada, adverbiallarning semantik va grammatik xususiyatlarining, leksik xilma-xilligi aspektual va temporal hodisalarni belgilashda diyektik jihatdan faollashuvi isbotlangan, adverbiallarning gapning

semantik tuzilishini tashkil etishdagi roli monopredikativ sintaktik birlikda paydo bo'lish mexanizmlarini tavsiflangan, shuningdek, tahlil qilish amalga oshirilgan.

ingliz va o'zbek tillarida adverbiallarning iterativlik, durativlik, tugallanganlik, natijaviylik, boshlanganlik kabi predikat aspektual semantikasini faollashtirishi borasidagi ma'lumotlardan Qarshi davlat universitetida 2021-2023-yillarda amalga oshirilgan SUZ-800-21GR-381 Reinforcing English Language competence at Karshi State University" nomli xalqaro grant loyihasi doirasida foydalanilgan. Adverbiallarning aspektuallik semantik maydonida temporallik, deyktik vazifalarni shakllantiruvchi omillar sifatida qayd etilgan. Qiyoslanayotgan tillarda adverbiallarning diskursdagi lisoniy munosabatlarni o'rnatuvchi aspektual va temporal hodisalar semantik va kontseptual tahlilini amalga oshirish istiqbolini shartlovchi yo'nalishlar belgilandi. (Qarshi davlat universiteti SUZ-800-21GR-381 Reinforcing English Language competence at Karshi State University" nomli xalqaro grant loyihasining 27- iyuldagi 03/2144 - sonli ma'lumotnomasi). Natijada Ingliz va o'zbek tillarida adverbiallarning leksik va semantik farqli tomonlarini belgilash, ularni chog'ishtirma planda o'rganish va tahlil qilish zarurati mavjud va mavzu yuzasidan dolzarb muammolar atroficha o'rganildi.

kompozitsion yondashuv va kontekstual shart-sharoitlarda miqdoriy adverbiallar matnni qo'shimcha semantika bilan to'ldirishi, adverbiallarning aspektual semantikani hosil qiluvchi funksiyalari temporal tarkibga bog'liqligi, predikatlarning dinamik/statik tavsif farqlashda habituallik, iterativlik, tugallanganlik, davimoylik kabi ma'nolarni qamrab olishi bilan bog'liq natijalaridan Samarqand viloyat teleradio-kompaniyasining "Samarqand oqshomlari", "Ta'lim islohotlari amalda" kabi o'quv ma'rifiy hamda ilmiy-ommabop teleko'rsatuvlari ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan. (O'zbekiston Milliy teleradio Samarqand viloyat teleradio kompaniyasining 16-mart 2024-yil. 01-07/47-son ma'lumotnomasi). Natijada, ushbu ko'rsatuvlar ommabopligi ta'minlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 14 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, shu jumladan, 3ta xorijiy jurnalda maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 142 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “**Kirish**” qismida mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi tahlil qilingan. Tadqiqot maqsadi va vazifalari aniqlangan. Tadqiqot obyekti, predmeti va usullari ko‘rsatilgan; ilmiy yangilik ifodalangan, tadqiqotning amaliy natijalari taqdim etilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan va ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan; tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, aprotatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi haqida ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning “Dunyo tilshunosligida aspektuallik tadqiqining nazariy asoslari” deb nomlangan birinchi bobi predikat ifodalaydigan ma’nolarni turli tipdagi ravishlar bilan, grammatik shakllar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta’minlovchi aspektual semantika va adverbiallar o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlashga qaratilgan.

Ingliz va o‘zbek tillaridagi aspektuallik ma’nolarini taqqoslashda birinchi navbatda ushbu tillarning fe’l sistemasiga xos bo‘lgan kategorial belgilarini qiyoslash bundan tashqari fe’l bilan ifodalanadigan ma’nolarga ta’sir qiladigan turli tipdagi ravishlar temporal vositalarni taqqoslash imkonini yaratadi. G‘arb tilshunosligida aspektual ma’nolarni ifodalanishi borasida yetuk olimlar o‘z tadqiqotlarini olib borgan. Jumladan, B. Komri., J. Bybee., Ö. Dahl., C. Bache., L. Brinton⁴ va boshqalar. O‘zbek tilshunosligida esa bu borada ham qator ishlar amalga oshirilgan bo‘lib aspektuallik semantikasi rus tilshunoslari Yu. Maslov., A. Bondarko., M. Shelyakin., E. Padichuva⁵ kabi tilshunoslarni qarashlari asosida shakillandi. Jumladan, bu borada D. Nasilov., F. G‘aniyev⁶ kabi tilshunoslar turkiy tillarda aspektuallik borasida qator ishlarni amalga oshirdi.

Temporal va aspektual xususiyatga ega bo‘lgan ushbu ravishlar odatda zamon, shuningdek, makon hamda payt, vaqt kechimlarini ma’lum bir vaziyatga solish uchun xizmat qiladi. Temporal ravishlar ko‘pgini holatlarda nutq vaziyati, nutq paytiga nisbatan oldin yoki nutq paytida yoki umuman nutq jarayoniga aloqador bo‘lgan voqea-hodisalarni tavsiflash uchun ham qo‘llaniladi. Bunda temporallik va aspektuallik xususiyatlarini farqlash ham talab etiladi. Aspektuallik esa ma’lum bir harakatni vaqt kechimidagi xususiyati sifatida baholashimiz mumkin. Demak, harakatlar o‘z navbatida o‘z kechimiga ko‘ra ma’lum bir temporal sohaga yoki temporal o‘ramga, temporal diapazonga xos xususiyatga mos

⁴ Comrie B. Aspect. An introduction to the study of verbal aspect and related problems. Cambridge UP., 1976. – 142 p; Bybee, Joan L. The semantic development of past tense modals in English. 1995. – P. 503-517; Dahl Ö. Book review: Laurel J. Brinton. The Development of English Aspectual Systems. Aspectualizers and post-verbal particles (Cambridge Studies in Linguistics, 49). Cambridge University Press, 1988. in: Journal of Semantics. 7 (1): 1990. – P. 115-119; Bache C. Verbal aspect: a general theory of its application to present-day English. Odense UP, 1985. – 337 p; Brinton L. The development of English aspectual system // Aspectualizers and post-verbal particles. Cambridge UP., 1988. – P. 276-307.

⁵ Маслов Ю. С. Очерки по аспектологии. - Л.: Наука, 1984. – 263 с; Бондарко А.В. Теория значения в системе функциональной грамматики: На материале русского языка / Рос. академия наук. Ин-т лингвистических исследований - М.: Языки славянской культуры, 2002. – 736 с; Шелякин М.А. Способы действия в поле лимитативности // Теория функциональной грамматики. Введение. Аспектуальность. Временная локализованность. Таксис. - Л., 1987. – С. 63-84; Падучева Е. В. К интерпретации видо-временных форм в нарративном режиме: настоящее историческое // Dialog, 2010. – С. 375-381.

⁶ Насилов Д.М. Проблемы тюркской аспектологии: Акциональность. - Л.: 1989. – 208 с; Ганиев Ф.А. Татарский язык: проблемы и исследования. - Казань: Татарское книжное изд-во, 2000. – 432 с.

kelishi mumkin. Aspektuallik va temporallik ingliz va o‘zbek tillarida shuningdek, ma’lum kategoriyal grammatik ko‘rsatkichlarga, shuningdek, leksik ko‘rsatkichlar bilan ham bog‘liq holda faollashadi. Bu kabi bog‘lanish Bodarko tomonidan taklif etilgan funksional semantik maydonda tavsiflanadi. Bevosita Bondarkoning ta’rifiga keladigan bo‘lsak, u aspektuallikni zamonning ichki harakati temporallikni esa zamon yoki vaqtning tashqi xususiyati ta’rifini beradi. Bundan tashqari u ichki va tashqi zamon xususiyatlarini *zamonga moslashish* tushunchasi bilan beradi.

Zamonaviy aspektuallik nazariyasi barcha lingvistik vositalar, ya’ni morfologik, leksik, sintaktik sathlardan tashqari kognitiv jarayonlar bilan aloqador ekanligiga e’tibor qaratadi.

Ingliz tilida fe’l bilan modifikatsiyalangan morfologik, semantik va aspekt ma’nolar temporal ko‘rsatkichlari bilan o‘zaro munosabatda bo‘lgandagina aspektual ahamiyatga ega bo‘lishi mohiyatan ma’lum kontekstual ahamiyatga ega. Ingliz va o‘zbek tillarida aspektual ma’noni ifodalash vositalari, til kategoriyalari, aspektual-semantik sinflar, fe’llarning kategorial ko‘rsatkichlari (dinamik, statik) fe’lning aktsional xususiyati, (chegaralanganlik, chegaralanmaganlik), ravishlar, to‘ldiruvchi vazifasidagi nominativ birliklarning sanalish xususiyatini ifodalovchi har bir lisoniy vositalarning o‘rganish darajasi muhimdir.

Ba’zi tilshunoslar fe’llarni kategorial fe’l yordamida emas, balki (telic /atelic fe’l) cheklangan, cheklanmagan punktual durativ fe’l punktual va durativ va stativ dinamik fe’l kabi qarama-qarshi juftlariga tasniflash orqali Z.Vendler tasnifini kengaytirdilar ushbu kontrastlarni aspektual xususiyatlar sifatida tahlil qildi. (+/-telik) Ushbu tasnifni tavsiflash uchun (+/- punktual) (+/-dinamik)

Ingliz tili aktsionsart semantikasini aspektualik doirasida faollashuvi.

Jadval 1.

	States (holat)	Accomplishment (tugallangan)	Achievement (natija)	Activity (faoliyat)	Semelfactive (semelfaktiv)
Habituallik	-	+	+	+	+
Temporallik	-	-	-	+	+
Tugallanganlik	-	-	+	-	+

Jadvalda turli vaziyat aspektual kategoriya uchun semantik xususiyatlar⁷ sifatida taqdim etilgan.

K.Smit tomonidan ta’kidlanadiganidek aspektual xususiyatlar nazariyasida aspektini tushunish uchun asos hisoblanadi. Ular bilan bog‘liq aspektning morfologik realizatsiyasi bo‘yicha perfektiv, imperfektivlik farq fe’ldan tashqari boshqa kontekstual vositalar ham aspektual belgi sanaladi. Aspektual xususiyatlar bilan bog‘lamaydigan ma’no aks temporallik doirasida kuzatiladi.

Aspektual hodisalar tahlilida qator terminlarni uchratish mumkin. Jumladan, H. Verkyul aspektual hodisalar tahliliga “*eventuality*” ya’ni “ehtimoliy tugallangan hodisa” atamasini kiritgan bo‘lsa, K. Smit esa “*hodisa turlari*”, “*hodisa*

⁷ Smith C. The parameter of Aspect. Dordrecht, 1991. – P. 30.

strukturasi” “*event types*” va “*event structure*” atamalarini kiritadi. Karlotta Smit tomonidan taklif etilgan hodisa turlari (*event types*) ma’lum jarayon hamda (*culminated process*) ya’ni jarayonning kulminatsion nuqtasi kabi hodisalarni qamrab oladi. Mazkur hodisalar ma’lum vaqt jarayonida chuzilgan yoki davom etgan hodisalarga ishlatiladi. Harakatning lahzalik yoki ma’lum bir voqea hodisani ma’lum lahzada amalga oshirilishi esa “*points*” yoki “*culminations*” atamasi bilan yuritadi. K. Smit tomonidan taklif etilgan “*states*” yani holat atamasi ham bo‘lib bu ko‘proq subekt yoki voqea hodisani ma’lum bir holatda bo‘lishini nazarda tutadi. K. Smit yuqorida qayt etilgan voqea hodisalarni kategoriyalanishi qo‘yidagi sxema yoki jadvalda ko‘rsatib beradi.⁸

Voqea hodisalarni kategoriyalanishi

Jadval 2.

	Events		States
	atomic	extended	
+ consequent state	culmination	culminated process	
- consequent	point	process	

Voqea hodisa strukturasiida kulminatsiya yoki kulminatsion jarayon hodisani ichki strukturasi sifatida baholanadi. Bunda point nuqta, yakuniy nuqta hamda jarayon vaqt jarayonida ma’lum bir vaqt oralig‘idagi hodisa sifatida tarkiblashadi. Holat esa temporal strukturaga ega sanalmaydi. Chunki u ma’lum bir voqea hodisa kechimidagi interval yoki alohida kichik strukturali, kichik tarkibli jarayonga yoki hodisaga bo‘linmaydi.

Ingliz va o‘zbek tillari zamon, aspekt va maylni ifodalashda kuzatilgan tafovutlar birinchi navbatda, ushbu kategoriyalar bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Bunda zamon va aspekt temporallik bilan aloqador tushunchalarni bildiradi. Zamon voqea-hodisani referensiya vaqtiga nisbatan oldin, shu bilan birga nutq jarayoniga tegishlilik tomonini ko‘rsatadi. Aspekt esa voqea-hodisani ichki temporal tarkibi, yani sodir bo‘ladigan voqea tugallanganligi, davom etishi, boshlanishi, prosesdaligi, iterativ ekanligini bildiradi. Bu ikkala jarayon bir biridan farq qiladi. Zamon hodisasi tashqi referensiya nuqtasi bilan bog‘laydi. Aspekt hodisasi ichki temporal xususiyat sifatida baxolanadi. Aspekt voqeq-hodisani referensiya nuqtasi bilan bog‘lamaydi. Ammo, Van Valin o‘z ishlarida zamon ham aspekt ham vaqt kechimidagi hodisa sifatida tavsiflaydi⁹. Zamon va aspekt bir-biri bilan bog‘liq bo‘lib hodisani temporal tarkibi tadqiqi bilan shug‘illanadi. Xususan, tugallangan hodisa (perfektiv aspekt) hozirgi yoki kelajakka tegishli bo‘lishi kabi muhokamalar mavjud.¹⁰ Xuddi shunday zamon va mayl bir-biridan vazifa va ifodasiga ko‘ra farq qiladi, lekin ular ko‘p hollarda bir-biri bilan bog‘liq tahlilga tortiladi. Mayl (mood) hodisani voqeligini, ya’ni hodisani sodir

⁸ Smith C. The parameter of Aspect. Dordrecht, 1991. – 258 p.

⁹ Van Valin. “A synopsis of Role and Reference grammar”. In Advanced in Role and Reference Grammar. Amsterdam: John Benjamins, 1993. – 159 p.

¹⁰ Comrie B. Aspect. An introduction to the study of verbal aspect and related problems. Cambridge UP., 1976. – 142 p; Chung, S. Timberlake, A.. “Tense, aspect and mood”. In Language Typology and Syntactic Description, part III. Cambridge University, 1985. – P. 202-258.

bo'lishining imkoniyatlarini o'rganadi. Shuningdek, u bo'lib o'tgan voqea hodisani dalillash uchun keltirilishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarga tegishlidir. Biroq, uning zamon bilan bog'liqligi kuzatilgan yoki kuzatilayotgan hodisalar mayl realis (real voqeylik) sifatida qaralishi bilan bog'liq bo'lib, voqea-hodisani sodir bo'lganligi kuzatilmagan holda (kelajakdagi voqealar) irrealis (noreal voqeylik) bilan bog'liq bo'ladi¹¹. Ko'rinib turibdiki, zamon, aspekt, maylning o'zaro bog'liqligi ingliz tilida grammatikaning asosiy tushunchalari sifatida baholanadi. Ammo, predikat semantikasi ulardan birini tanlash imkonini beradi.

O'tgan zamon realis tushunchasi, asosan tugallangan aspektual ma'noni anglatishi va aniq grammatik shakl bilan bevosita belgilanishi mumkin. Kelasi zamon yoki irrealis esa, asosiy belgisi aspektual bo'lgan ma'no bilan bog'liq bo'lib tugallanmaganlik semantikasini berishi mumkin. Shunday qilib, bir vaqtning o'zida mayl tushunchasi davomiylikning aspektual tushunchasiga ega bo'lishi yoki aksincha bo'lishi mumkin. Ingliz tilida fe'l kategoriyalarini birmuncha murakkablashtiradigan tushunchalar mavjud. Chunki aspekt va zamon o'zaro bog'liq hodisadir. Bundan tashqari ingliz tilidagi nisbat, mayl ketegoriyalari ham aspekt va zamonga aloqadorlikka ega. Aspektual nazariyasida qo'llanadigan *viewpoint* (kuzatuv nuqtasi) tushunchasi butun semantikasi qamrab oladi. U aspektual tushunchasi harakat tarzi va aspektga ajratadi. Birinchi dinamik asosga ega bo'lsa ikkinchisi esa ularning flektiv shakllari orasidagi farqlarni aniqlaydi. Birinchi, obektiv ikkinchi esa subektiv deb hisoblanadi.¹² Xuddi shunday (kuzatuv nuqtasi) *viewpoint* ham deyektik bo'lmagan zamonga (ya'ni biror hodisaning vaqt kechimiga mos referensiya nuqtasi sifatida) va deyektik zamonga bo'linadi. Birinchi obyektiv, ikkinchi esa subektiv deb hisoblashimiz mumkin.

Ishning "Ingliz va o'zbek tillarida temporal adverbiallarning kontekstual xususiyatlari" deb nomlangan ikkinchi bobida ingliz va o'zbek tillaridagi temporal adverbiallarning predikat semantikasiga ta'sirini aniqlashga qaratilgan bo'lib, adverbiallarning sintaktik kategoriyal xususiyatlari, funksional semantik maydonda faollashuvi, temporal va aspektual semantikasi shakllantiruvchi vositalardan biri ekanligi o'rganildi.

Aspektual adverbiallar esa ko'proq temporal birliklarga tayanadi yoki temporal birliklar yordamida hosil bo'ladi.

Demak, har bir tilda aspektual mazmuni ifodalaydigan temporal adverbiallar mavjud. Ushbu temporal adverbiallarni quyidagicha tasniflash mumkin.

1. Durativ adverbiallar; bunga ingliz tilidagi *for* predlogli tuzilmalar, birikmalar kiradi. Masalan: *for an hour* yoki *from five till six*, *during* bundan tashqari *in ten minutes* hamda *during* kabi adverbiallarni kiritishimiz mumkin.

Masalan: *Once she faltered for a minute and stood still while a tear or two splashed on the worn red carpet* [O'. Henry, p. 13]; *Do you think she would listen to a declaration from me during those six or eight minutes under those circumstances?* [O'. Henry; 59].

¹¹ Palmer F.R. Mood and Modality. Cambridge: Cambridge University. Pulman, S.G., 1997. – P. 279-317.

¹² Platzack C, A. Holmberg The Role of AGR and Finiteness. // In Working Papers in Scandinavian Syntax, 43: 1989. – 39 p.

2. Harakatning takrorlanishini ifodalovchi iterativ aspektual adverbiallar. Bular qatoriga *every day, so, often, occasionally, seldom, never, twice, thrice, several times* o'zbek tilida *har doim, odatda, har kun gohida, ba'zan* va hokazolarni kiritishimiz mumkin. Masalan: *He seldom allowed Kathleen to drive to the supermarket without him. He hid the ignition key from her and kept her in purdah* [Saul Bellow "Humboldt's Gift", p. 14]; *I gave him a dollar for his trouble. I usually did that. And now the flow of malevolence had to be reversed* [Saul Bellow "Humboldt's Gift", p. 24]; *Mexanik ba'zan ruldagi Dildoming yoniga o'tirib qo'liga qo'lini bexosdan tegizib qo'yar, undoq emas, pedalni bundoq bosadi, deb sonini nari-beri surardi. Gohida ko'zi tinib uning orqasidan qo'lini o'tqazib richagni tortardi* [Said Ahmad "Ufq", b. 521].

3. Adverbiallar ko'proq aniq vaqtni ko'rsatuvchi adverbiallar bular qatoriga *in july, immediatly, at five oc'lock* o'zbek tilida "*o'sha paytda, shu paytda*", *soat 4 da, ayni paytda* va hokozolar kiradi. Masalan: *And though Humboldt was waiting for me in a fever, I claimed a moment for myself in the fresh air* [Saul Bellow "Humboldt's Gift", p. 69]; *Atrofni qorong'ilik bosgan, qamishlar shamolda sovuq guvullaydi. Yonida yotgan bolasi o'qtin-o'qtin ayanchli ingraydi. Shu paytda olisdan kimningdir, "Jannnaaaat", deb qichqirgani eshitildi* [Said Ahmad "Ufq", b. 375].

4. Nutq vaziyatiga nisbatan vaqtni ko'rsatuvchi adverbiallar bularga *soon, before, after, next week* va shu kabilar kiradi. Ingliz tilidagi kabi o'zbek tilida ham ushbu tarkibli ravishlar uchraydi. Durativ ravishlar qatoriga *biz moboytida, davomida, sekin – sekin* kabilarni kiritishimiz mumkin. Iterativ ravishlarga esa *tez – tez, ba'zan, gohida, har doim* va hokozolar kiradi. Masalan: *Yuragim lax-ta-laxta qon bo'ldi. Qovog'idan doim qor yog'adi, vajohati doim qish, doim izg'irin...!* [A.Cho'lpon "Kecha va kunduz", b. 108]; *Darhaqiqat, Marg'ilon ipak kombinatidan to'ng'iz ovlagani velosipedda injenerlar bu taraflarga tez-tez kelib turishardi. O'shalardan biri bo'lsa kerak* [Said Ahmad "Ufq", b. 353].

Adverbiallar ya'ni harakatning aniq paytini ko'rsatadigan ravishlarga esa "*darhol, o'sha zahotiyog, soat 8 da, o'shanda, o'sha payt, yaqinda*" va hokozolar kiradi.

Ingliz va o'zbek tillarida temporal munosabatlarning ifodalanishini belgilovchi asosiy leksik vositalar (harakatning durativligi, davomiyligi, ketma-ketligi, karraliligi, takrorlanishi, habitualligi) turlicha temporal ravishlar kiradi. Ikkala tildagi temporal ravishlarni leksik-semantik xususiyatlariga ko'ra quyidagi tasnifni taklif qilishimiz mumkin:

1. Harakat, voqea-hodisani bir paytda ifodalanishini bildiruvchi ravishlar. Masalan *at the moment, now, when he came, o'shanda, ayni vaqtda, hozir* va hokozolar faollashadi. Masalan: *Thaxter seldom laughed aloud. His deepest delight was always more than half-silent, and his delight at this moment was wonderfully deep* [Saul Bellow "Humboldt's Gift", p. 141]; *Uning qo'llari issiq edi. Azizxon bir lahza o'zini yo'qotdi. Vazira paxsa devoming qulagan joyidan uni ichkariga boshladi* [Said Ahmad "Ufq", b. 232].

2. Voqea-hodisalarni nutq paytiga aloqadorligini anglatuvchi ravishlar: *now, up to the moment, ayni paytda*. Masalan: *For the moment Cantabile and Polly*

were not paying a great deal of attention to me. He was explaining to her how a convenient little corporation might be set up to protect my income [Saul Bellow "Humboldt's Gift", p. 90]; *Uning qo'llari issiq edi. Azizxon bir lahza o'zini yo'qotdi. Vazira paxsa devoming qulagan joyidan uni ichkariga boshladi* [Said Ahmad "Ufq", b. 232].

3. Voqea-hodisani nutq kechimi yoki muloqot kechimiga bog'liqligini ta'minlovchi ravishlar: ingliz tilida *today, this time*; o'zbek tilida esa *bugun, shu paytlarda*. Masalan: *I visualized the twigs, the roots, the harsh fuzz of the new growth hardening into spikes, plus all the botany I could remember: phloem xylem cambium chloroplasts soil sun water chemistry, attempting to project myself into the very plant and to think how its green blood produced a red flower* [Saul Bellow "Humboldt's Gift", p. 113]; *"I would have thought so too, before today, with everybody talking about your milliondollar fortune. But before you signed the check at the Palm Court you added it twice from top to bottom and again from the bottom* [Saul Bellow "Humboldt's Gift", p. 190]; *O'n yil mobaynida shulardan yigirma ming kishi og'ir mehnat azobidan o'lib ketadi* [Said Ahmad "Ufq", b. 194].

4. Nutq jarayonidan keyingi voqea-hodisalarga ishora qiluvchi ravishlar: *to night, tomorrow, later on*, o'zbek tilida esa *bugun kechqurun, ertaga, keyinroq, bir ozdan so'ng, hali ham va hokazo*. Masalan: *The thought of the life we are now leading may pain us as greatly later on as the thought of death pains us now*. [Saul Bellow "Humboldt's Gift", p. 170]; *Nizomjon opasining gapiga ishondi.- Xo'p, ozroq pulim bor. Beraman, Ko'ylak, etik olishga yig'ib yurgan edim. Mayli, keyinroq olarman.U yonidan uch yuz so'mcha pul olib opasiga berdi*. [Said Ahmad "Ufq", b. 405].

5. Voqea-hodisa kechimi davomiyligi, durativligini qamrab oluvchi ravishlar: *for a long time, since, that time*, o'zbek tilida *ancha vaqt, ma'lum davr, bir oz va hokozo*. Masalan: *But he wasn't much for conversation and nobody has talked to me like this in a long, long, long time, and I'm out of listening practice. I love it when you sound off. But it isn't very clear to me* ["Humboldt's Gift", p. 242]; *Jannat xolaning cho'lga ketishiga hali ham ko'ngli yo'q edi. Erining safarga ketayotganida ko'nglini alag'da qilgisi kelmay* [Said Ahmad "Ufq", b. 338].

6) Harakat, voqea-hodisani qisqa vaqt oralig'idagi kechimini anglatuvchi ravishlar: *that time, immediately*, o'zbek tilida *usha paytda, darhol, soon va hokozo*. Masalan: *But he wasn't much for conversation and nobody has talked to me like this in a long, long, long time, and I'm out of listening practice*. [Saul Bellow "Humboldt's Gift", p. 242]; *U o'g'li orqasidan borarkan, yo'l-yo'lakay uchragan kishilaming unga salom berishi, orqasidan, "ana Eshni urgan polvon, ana, o'zidan yetti baravar og'ir yuk ko'taradigan", deb havas bilan qarab qolayotgan kishilami ko'rib, o'g'lining quyib qo'ygandek gavdasiga qarar, ko'z tegmasin iloyim senga, deb pichirlar, bir zumda yana allaqanday qora o'ylar girdobiga chulg'anib, entikardi* [Said Ahmad "Ufq", b. 109].

7. Zamon doirasida ketma-ketlikni ifodalovchi ravishlar: *then, repeatedly, one after another, tomorrow, then*, o'zbek tilida *ertaga, keyin, keyinroq, va hokozo*. Masalan: *"What will you do?" said eager, heart-melting, concerned*

Citrine. "Tomorrow when we get back to New York I'm going to get lost. I love him but I can't take any more. I'm telling you to prepare you, because you guys love each other, and you'll have to help him. [Saul Bellow "Humboldt's Gift", p. 76]; - Keyinroq borarman. Hozir borsam, sizlarga tashvish bo'lishdan boshqa foydam tegmaydi. Boraveringlar, mendan xavotir olmang, menga jin ham tegmaydi. [Said Ahmad "Ufq", b. 316].

8. Ingliz va o'zbek tillarida zamon kechimida ustunlik voqea-hodisalarni nutq paytiga nisbatan oldin sodir etilganligini ifodalovchi ravishlar: oldin, avval, before, later va hakoza.

Masalan: *To utter his threat relieved him wonderfully of something. His lips (not often silent) were lengthened by a silent smile when one of the young men said, "We've all heard of Mr. Citrine before"* [Saul Bellow "Humboldt's Gift", p. 236]; Urushdan **oldin** ham shunaqa eding. - Oxunboboyev g'ovurmi bosib o'rnidan turdi-da, sahna chetiga kelib kula-kula gap boshladi: - Polvon bilan yoshimiz teng. Bolaligida ham shunaqa beparvoroq edi... [Said Ahmad "Ufq", b. 327].

9. Voqea-hodisalarni odatiyligini ko'rsatuvchi ravishlar: *har doim, odatda, usually, always* va hokoza. Masalan: *I gave him a dollar for his trouble. I usually did that. And now the flow of malevolence had to be reversed* [Saul Bellow "Humboldt's Gift", p. 24]; *Ota o'z bolasini ming marta oq qilganda ham yuragining bir chekkasida shu bolaga atab ardoqlagan, uning kamolini ko'rishga asragan mehrining zarralari yotadi. Bu zarralar vaqti-vaqti bilan alanga olib, yana so'nadi* [Said Ahmad "Ufq", b. 324].

10. Bir xil voqea-hodisalarni takrorlanishini bildiruvchi ravishlar: *har kun, tez-tez, gohida, often, seldom, every day* va hokoza. Masalan: *He seldom allowed Kathleen to drive to the supermarket without him. He hid the ignition key from her and kept her in purdah* [Saul Bellow "Humboldt's Gift", p. 14]; — **Odatda**, *erxotin orasida gap qochganda, begona yonida bo'lsa, danakdek janjal yong'oqdek bo'lib ketadi. O'zlaring bir qarorga kelarsizlar, — deb Xolmatjon chiqib ketdi* [Said Ahmad "Ufq", b. 509 b].

